

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

# №4

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

# 2026 APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari  
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE


ROAD

INDEX COPERNICUS  
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, aprel.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afrovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

**Kalonova Moxigul Baxritdinovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Norboyev Odil Abrayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Pardaev Umidjon Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich**, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

|  |    |
|--|----|
| STRATEGIC INTEGRATION OF BUSINESS PLANNING AND FORECASTING IN INDUSTRIAL ENTERPRISES.....  | 11 |
| <b>Sharipov K.A., Ismatullayev T.R.</b>  |    |
| ВКЛАД БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ МАХАЛЛЕЙ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН: МЕХАНИЗМЫ, ДИНАМИКА И СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ ..... | 21 |
| <b>Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна</b>   |    |
| BUDJET TASHKILOTLARIDA XARAJATLARNI REJALASHTIRISH VA MOLIVAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISH.....   | 27 |
| <b>Karayev Payzillaxon Yusufxonovich</b>   |    |
| FERMER XO'JALIKLARINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA SUBSIDIYA AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....  | 32 |
| <b>Xakimov Zafar Ibragimovich</b>  |    |
| IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA DAVLAT INNOVATSION VA INVESTITSION SIYOSATINING O'RNI .....  | 38 |
| <b>Xaydarova Yorqinoy Asqar qizi</b>   |    |
| QURILISH SANOATIDA KORXONALARNI MOLIVAVIYASHTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.....  | 44 |
| <b>Igitov Jurabek Kuzibekovich</b>   |    |
| ОСОБЕННОСТИ ВЫБОРА СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ МЕТАЛЛУРГИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА .....  | 50 |
| <b>Абдуллаева Матлуба Нематовна, Акбарова Муфаррах Мухитдиновна</b>  |    |
| СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ КОМПЛЕКС-КОНТРОЛЯ В КОМПАНИЯХ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ В УЗБЕКИСТАНЕ .....   | 56 |
| <b>Халтурдиев Айтмурат Маратович</b>   |    |
| O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING ICHKI BELGILARI .....  | 64 |
| <b>Saatova Lolaxon Ergashevna</b>  |    |
| INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA OZIQ-OVQAT KORXONALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH MEKANIZMLARI .....  | 71 |
| <b>Pulatov Abdullo</b>   |    |
| MAJBURIY IJRO ETISH CHORALARINI TAKOMILLASHTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....  | 76 |
| <b>Axmedov Zafarjon Zokirjon</b>   |    |
| МОДЕЛЬ ИНТЕГРИРОВАННОЙ СИСТЕМЫ ESG-ТРАНСФОРМАЦИИ И ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ЕЁ РЕАЛИЗАЦИИ НА ПРЕДПРИЯТИИ ПО ПРОИЗВОДСТВУ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВКИ .....    | 80 |
| <b>Ташпулатов Дильмурад Рустамович</b>   |    |
| KORPORATIV KORXONALARDA KAPITALNI BUDJETLASHTIRISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....  | 85 |
| <b>Latipova Shaxnoza Maxmudovna</b>  |    |
| INNOVATSION MENEJMENTDA KOMMUNIKATSIYA VA TASHKILY MOSLASHUVCHANLIKNING ROLI: O'ZBEKISTON SHAROITI MISOLIDA .....                                    | 92 |
| <b>Atamatov Abdualil Salomovich</b>  |    |
| QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING AHAMIYATI VA UNING SALOHİYATINI BELGILOVCHI OMILLAR .....   | 97 |
| <b>Qodirov Baxodir Tursunovich, To'rayev Qaxramon Zokirjonovich</b>  |    |



|  |     |
|--|-----|
| NAMANGAN VILOYATIDA AYOLLAR TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK MUHITINI BAHOLASH .....   | 103 |
| <b>Raximova Moxigul Isroiljonovna</b>  |     |
| O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI ..... | 107 |
| <b>Davitova Shaxzoda Doniyor qizi</b>  |     |
| ANALYSIS OF THE FORMATION OF MARKET DEMAND AND THE ESTABLISHMENT OF EQUILIBRIUM IN A MARKET ECONOMY .....  | 112 |
| <b>Kamilova Nargiza</b>  |     |
| BO'LAJAK FIZIKA O'QITUVCHILARINI NANOTEXNOLOGIYA SOHASIDAGI BILIMLARNI TAQDIM ETISHGA VA O'QITISHGA TAYYORLASH METODIKASI .....                    | 115 |
| <b>Sottarov Abduvali Umirqulovich</b>  |     |
| INTEGRATING AI INTO STRATEGIC MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS .....  | 120 |
| <b>Uktamova Durdona Bakhtiyor qizi, Sultonali Umaraliyevich Mekhmonov</b>  |     |
| BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA IJTIMOIIY HISOBOTLAR VA ULARNING AHAMIYATI .....   | 130 |
| <b>Sayfullayev Mexroj Sayfullayevich</b>   |     |
| SANOAT KLASTERINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY JIHATLARI.....  | 135 |
| <b>Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich</b>  |     |
| RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIGINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI .....                | 140 |
| <b>Yangiboev Rustam Berdiyrovich</b>   |     |
| MINTAQA IQTISODIY O'SISH DRAYVERLARINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY XAVFLARNI BOSHQARISH MEKANIZMLARI.....   | 145 |
| <b>Turopova Nigora Xolmurod qizi</b>   |     |
| ЭКОЛОГИЯ ТУРИСТА КАК МЕТОД СОЗДАНИЯ КОМФОРТНОЙ И УСТОЙЧИВОЙ СРЕДЫ ДЛЯ ПУТЕШЕСТВЕННИКОВ.....  | 149 |
| <b>Наурызбаев Алиакбар Рустамович</b>  |     |
| BINO VA INSHOOTLARNI BARPO ETISHDA PREFABRIKATSIYALASHGAN HAMDA MODULLI QURILISH TIZIMLARINI AQLLI BOSHQARUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH .....       | 152 |
| <b>Solijonov Javoxirmirzo Obidjon o'g'li</b>   |     |
| RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA AKSIYADORLIK TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH .....      | 163 |
| <b>Saidaxmedova Aida Mirzayevna</b>  |     |
| O'ZBEKISTONDA KO'CHAT YETISHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....   | 169 |
| <b>Abdufarmonov Farrux Faxriddinovich</b>  |     |
| O'ZBEKISTONDA EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI SIFATI VA XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQLIGI TAHLILI .....                    | 174 |
| <b>Safarova Muxabbat Radjabovna</b>  |     |
| TIJORAT BANKLARI DEPOZIT SIYOSATI VA DEPOZIT BAZASI DINAMIKASINING BANK LIKVIDLIGIGA TA'SIRI .....   | 178 |
| <b>Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li</b>  |     |
| RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ISLOMIY MOLIYANING BANK TIZIMIGA INTEGRATSIYASI: MUAMMOLAR, IMKONIYATLAR VA TRANSFORMATSIYA YO'NALISHLARI .....     | 186 |
| <b>Adilov Zuxriddin Marip o'g'li</b>   |     |
| SAMARQAND VILOYATI SANOATINING HUDUDIY TARKIBINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....   | 190 |
| <b>Uralov Eliboy Omonovich</b>   |     |



|   |     |
|---|-----|
| DIVERSIFIKATSIYALASHUV ASOSIDA QURILISH TARMOG' I RIVOJLANISHINI KO'P OMILLI BOG'LANISHLAR ASOSIDA MODELLASHTIRISH.....                                       | 194 |
| <b>Yembergenova Aynur Aydosbaevna</b>   |     |
| ЩЕБЕНОЧНО-МАСТИЧНЫЙ АСФАЛЬТОБЕТОН В КИТАЕ: СОСТАВ, СВОЙСТВА, ИННОВАЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ.....  | 201 |
| <b>Карабаев Абдужаббор Мелиевич, Занг Хайфей</b>  |     |
| TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA SUBYEKTIV RISKNI SHAKLLANTIRUVCHI KOGNITIV OMILLAR VA ULARNI BOSHQARISH MEKANIZMLARI .....   | 205 |
| <b>Abduxamid Abdumalikovich Bektemirov</b>  |     |
| HOMILADOR AYOLLAR UCHUN MAXSUS KIYIMLARNI LOYIHALASHDA ISTE'MOLCHILAR TALABLARINI O'RGANISH .....   | 211 |
| <b>D.Sattarova, U.Vakhidova, D.Madiyarovna</b>  |     |
| O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI DAROMADLARIGA TA'SIR ETUVCHI STATISTIK INDIKATORLAR TIZIMINING METODOLOGIK ASOSLARI VA ULARNING TAHLILYI IMKONIYATLARI ..... | 217 |
| <b>Atayev Jaxongir Erkinovich</b>   |     |
| KICHIK BIZNES INVESTITSION KREDITLARINI TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MOLIYALASHTIRISH.....  | 221 |
| <b>M.O.Yuldoshova</b>   |     |
| HUDUDNING "YASHIL IQTISODIYOT" ASOSIDA RIVOJLANISHINI TADQIQ ETISH: KO'RSATKICHLAR TIZIMI VA BAHOLASH USULLARI .....  | 226 |
| <b>Shomirzayev Abdug'affor Abdujabbor o'g'li</b>  |     |
| O'ZBEKISTONDA SUV XO'JALIGI TIZIMIDAGI QAYTA TIKLANUVCHI HAVZALAR .....   | 231 |
| <b>To'rayev Rasul Nortojiyevich, Seytov Aybek Jumabayevich, Uteuliyev Niyatbay Uteuliyevich, Haydarova Roziya Davronovna</b>                                  |     |
| KORXONALAR IQTISODIY BARQARORLIGINING NAZARIY MODELLARI VA SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA BAHOLASH MEKANIZMLARI .....   | 236 |
| <b>Iminova Nargizaxon Akramovna</b>   |     |
| TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA SIYOSATI VA QIMMATLI QOG'OZLAR PORTFELINI BOSHQARISH STRATEGIYALARI .....   | 241 |
| <b>Abduvaliyev Sanjar Abdurahmonovich</b>   |     |
| PAHTA VA MEVA-SABZAVOT YETISHTIRUVCHI FERMERLARDA TAVAKKALCHILIK XULQ-ATVORINING QIYOSIY TAHLILI: ISTIQBOL NAZARIYASI ASOSIDA.....                            | 249 |
| <b>Tadjiyev Abdusame Abduhamidovich</b>   |     |
| ФОРМИРОВАНИЕ МАРКЕТИНГОВОЙ СТРАТЕГИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ.....  | 253 |
| <b>Алиев Абдулазиз Исмаилович, Кахрамонова Азиза Шухрат кизи</b>  |     |
| QQS TIZIMI SAMARADORLIGINI XALQARO INDIKATORLAR ASOSIDA BAHOLASH .....  | 259 |
| <b>Eshkarayev Bobir Chariyevich</b>   |     |
| QISHLOQ XO'JALIGIDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING INNOVATSION USULLARI .....  | 265 |
| <b>Tadjimirzayev Anvar Abduvoxidovich, Batirova Raxima Abdujabborovna</b>   |     |
| O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH MEKANIZMINING AMALIY TAHLILLARI.....  | 273 |
| <b>Hamroyev Sherzod Axtamovich</b>  |     |
| ПРОГНОЗИРОВАНИЕ ПОТРЕБИТЕЛЬСКОГО СПРОСА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ МЕТОДОВ МАШИННОГО ОБУЧЕНИЯ В РОЗНИЧНОЙ ТОРГОВЛЕ УЗБЕКИСТАНА.....                                     | 280 |
| <b>Тен Марина Владимировна</b>  |     |
| O'ZBEKISTON SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH DASTURLARINING IMPORT O'RNINI BOSISHDAGI SAMARADORLIGI TAHLILI .....   | 287 |
| <b>Sobitova Ra'no Solidjonovna</b>  |     |



NEFT-GAZ LOYIHALARIDA DAVLAT VA INVESTOR MANFAATLARINI MUVOFIQLASHTIRISHNING  
FISKAL-BOJXONA MEXANIZMLARI.....290

Mansurov Obid Zaynidinovich

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS



# NEFT-GAZ LOYIHALARIDA DAVLAT VA INVESTOR MANFAATLARINI MUVOFIQLASHTIRISHNING FISKAL-BOJXONA MEXANIZMLARI

**Mansurov Obid Zaynidinovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya.** Maqolada neft-gaz loyihalarida davlat va investor manfaatlarini optimal muvofiqlashtirishning moliyaviy mexanizmlari, xususan soliq va bojxona to'lovlari tizimi hamda alohida hisobot joriy etilishining sabablari tahlil qilinadi. O'zbekiston Respublikasining "Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar to'g'risida"gi Qonuni (2001), Soliq kodeksining turli tahrirlari hamda Bojxona kodeksi asosida mahsulot taqsimotiga oid bitim (MTB) ishtirokchilari uchun nazarda tutilgan imtiyozlar, soliq stavkalari, majburiy to'lovlar va bojxona tartiblari o'rganilgan. Amaliyotdagi MTB misollari asosida davlat va investor manfaatlari muvozanatini ta'minlash mexanizmlari yoritilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, MTBning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish hamda davlat manfaatlarini samarali himoya qilishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** neft-gaz loyihalari, mahsulot taqsimotiga oid bitim, MTB, davlat va investor manfaatlari, moliyaviy mexanizmlar, soliq imtiyozlari, soliq hisobotlari, kompensatsiya mahsuloti, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq (royalti), stabillik klauzasi.

**Abstract.** This article analyzes the financial mechanisms for optimally harmonizing the interests of the state and investors in oil and gas projects, particularly the system of taxation and customs payments, as well as the rationale for introducing separate reporting. Based on the Law of the Republic of Uzbekistan "On Production Sharing Agreements" (2001), various editions of the Tax Code, and the Customs Code, the study examines tax incentives, tax rates, mandatory payments, and customs procedures provided for participants of Production Sharing Agreements (PSA). Using practical PSA cases, the mechanisms for balancing state and investor interests are demonstrated. Based on the research findings, recommendations are developed to enhance the investment attractiveness of PSAs and ensure effective protection of state interests.

**Keywords:** oil and gas projects, production sharing agreement, PSA, state and investor interests, financial mechanisms, tax incentives, tax reporting, cost recovery oil, subsoil use tax (royalty), stabilization clause.

**Аннотация.** В статье анализируются финансовые механизмы оптимального согласования интересов государства и инвестора в нефтегазовых проектах, в частности система налоговых и таможенных платежей, а также причины внедрения отдельной отчетности. На основе Закона Республики Узбекистан «О соглашениях о разделе продукции» (2001 г.), различных редакций Налогового кодекса и Таможенного кодекса исследованы налоговые льготы, ставки налогов, обязательные платежи и таможенные процедуры, предусмотренные для участников соглашений о разделе продукции (СРП). На примере практических СРП показаны механизмы обеспечения баланса интересов государства и инвестора. По результатам исследования разработаны предложения по повышению инвестиционной привлекательности СРП и защите государственных интересов.

**Ключевые слова:** нефтегазовые проекты, соглашение о разделе продукции, СРП, интересы государства и инвестора, финансовые механизмы, налоговые льготы, налоговая отчетность, компенсационная продукция, налог на пользование недрами (роялти), стабилизационная оговорка.



## KIRISH

Neft-gaz sanoati har qanday davlat iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyatga ega. Bugungi kunda dunyoda 100 dan ortiq mamlakat mahsulot taqsimotiga oid bitimlar (MTB) mexanizmidan foydalanmoqda [1]. O'zbekiston ham tabiiy resurslarga boy davlat sifatida ushbu mexanizm orqali chet el investitsiyalarini jalb etishda muhim tajribaga ega.

MTB – bu davlat bilan investor o'rtasida tuziladigan bitim bo'lib, unga ko'ra investor yer osti boyliklarini izlash, qidirish va qazib olish ishlarini amalga oshiradi hamda olingan mahsulot muayyan tartibda taqsimlanadi [2]. MTBning o'ziga xos jihatlaridan biri shundaki, unda tijorat shartlari sifatida soliq solish va boshqa to'lovlarni to'lash tartibi belgilanadi [2].

Mahsulot taqsimotiga oid bitimlarning huquqiy tabiatiga ko'ra, ular konsessiyadan farqli ravishda investorga yer osti boyliklariga egalik huquqini emas, balki ulardan foydalanish huquqini beradi [3]. Bu esa MTBning asosiy afzalliklaridan biri – investitsiya xavflarini davlat va investor o'rtasida taqsimlash imkoniyatini yaratadi.

Maqolaning maqsadi – O'zbekistonda neft-gaz loyihalarida davlat va investor manfaatlarini optimal muvofiqlashtirishning moliyaviy mexanizmlarini, xususan soliq va bojxona tizimi hamda alohida hisobot joriy etilishining sabablarini tahlil qilish va takomillashtirish yo'llarini taklif etishdir.

## MAVZU OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mahsulot taqsimoti bitimlari bo'yicha ilmiy adabiyotlarda asosan ikki yo'nalishdagi tadqiqotlar ustuvorlik qiladi: birinchisi – MTBning huquqiy tabiati va uning konsessiyadan farqli jihatlari; ikkinchisi – MTBdagi soliq mexanizmlari va ularning investitsiya jozibadorligiga ta'siri.

Xalqaro adabiyotlarda MTB mexanizmi Djonston (2000) va Bindemann (1999) kabi olimlarning ishlarida chuqur tahlil qilingan [4; 5]. Ular MTBning asosiy afzalligi – investitsiya xavflarini davlat va investor o'rtasida taqsimlash imkoniyati ekanligini ta'kidlaydilar.

Yer qa'ridan foydalanishda mulk huquqi masalasi turli davlatlarda turlicha hal etiladi. Niderlandiyada konsessiya tizimining asosiy prinsipi – yerga mulk huquqini yer qa'riga mulk huquqidan ajratish hisoblanadi [6]. Ushbu umumiy qoidaning istisnosi sifatida AQSH misol bo'ladi: bu yerda foydali qazilmalarni qidirish va ulardan foydalanish huquqlari yerga bo'lgan mulk huquqi bilan bog'liq. Shu bilan birga, mulkdor mazkur huquqlarni ijaraga berishi yoki ularni boshqa shaxsga o'tkazishi mumkin, bunda yer uchastkasining o'ziga bo'lgan mulk huquqini saqlab qoladi [7]. O'zbekistonda esa "Yer qa'ri to'g'risida"gi Qonunga (2024) muvofiq, yer qa'ri boyliklari davlat mulki hisoblanadi va investor faqat ulardan foydalanish huquqiga ega bo'ladi.

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, davlatning mulk huquqlarini amalga oshirishi va yer qa'ridan foydalanish jarayonlarini boshqarish usullari davlat siyosatiga bevosita bog'liqdir.

Neft sektoridagi soliq siyosatining eng muhim tarkibiy qismi – neft qazib olishni soliqqa tortish bo'lib, u quyidagi soliq mexanizmlari orqali amalga oshiriladi [8]: renta daromadlarini olib qo'yishning soliq mexanizmlari; neft fiskal tizimlari; soliq solinadigan bazani nazorat qilish mexanizmlari. Ushbu mexanizmlarning samarali kombinatsiyasi MTB loyihalarida davlat va investor manfaatlarini muvozanatlashtirishning asosiy vositasi hisoblanadi.

Renta nazariyasi doimo iqtisodiy nazariyaning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib kelgan. D. Rikardo "Siyosiy iqtisod va soliqqa tortish asoslari" asarida "yer qa'ri (yer) mahsuloti mehnat va kapital ishtirokida yaratiladi", deb ta'kidlagan [9]. Renta nazariyasi ushbu mahsulotning ishchi kuchi, kapital egalari va yer qa'ri (yer) egalari o'rtasida ish haqi, foyda va resurs (yer) rentasi orqali taqsimlanishi masalalari bilan shug'ullanadi. Klassik variantda neft sektoridagi differensial renta mahsulot qiymati bilan uni qazib olish xarajatlari o'rtasidagi farqni ifodalaydi [10]. Bu xarajatlar qidiruv, o'zlashtirish va ekspluatatsiya qilishning oddiy xarajatlari hamda neft sanoati uchun mos foyda ulushidan iborat. Differensial renta ishlab chiqarish xarajatlari cheklangan (zamykayushchiy) konlarga nisbatan past xarajatlarga ega bo'lgan konlardan olinadigan qo'shimcha daromadni aks ettiradi [11]. MTB loyihalarida renta daromadlarini to'g'ri taqsimlash masalasi davlat va investor manfaatlarini muvozanatlashtirishning asosiy muammolaridan biridir.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi qiyosiy-huquqiy, tahliliy va tizimli yondashuvlarni qo'llashga asoslangan. Axborot bazasi O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, mahsulot taqsimoti to'g'risidagi bitimlar hamda ilmiy nashrlarni o'z ichiga oladi. Tahlil uchun kontent-tahlil, huquqiy modellashtirish va ekspert baholash usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning manbaviy bazasini O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari (Lex.uz), Soliq kodeksining turli tahrirlari, Bojxona kodeksi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident qarorlari, shuningdek, MTB bo'yicha amaldagi hisobot shakllari tashkil etadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

### 1. MTB doirasida soliq va bojxona tizimining huquqiy asoslari

#### 1.1. MTB to'g'risidagi Qonundan asosiy normalar:

O'zbekistonda MTB tizimini tartibga soluvchi asosiy normativ-huquqiy hujjat 2001-yil 7-dekabrda qabul qilingan «Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar to'g'risida»gi Qonun (O'RQ-312-II) hisoblanadi. Qonunning (keyingi matnlarda – Qonun) 3-moddasiga muvofiq, MTB shartnoma hisoblanib, unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi haq olish asosida va muayyan muddatga chet ellik investorga yer qa'ri uchastkasida konlarni aniqlash, qidirish va foydali qazilmalarni qazib olish uchun mutlaq huquqlar beradi, investor esa bu ishlarni o'z mablag'lari hisobiga va tavakkal qilib amalga oshiradi [2].

MTBning huquqiy tabiatini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ushbu bitim konsessiyadan tubdan farqlanadi. Konsessiyada investorga yer osti boyliklariga egalik huquqi berilsa, MTBda investor faqat ulardan foydalanish huquqiga ega bo'ladi. Ushbu huquqiy xususiyat MTBda soliq solish va hisobot tizimining alohida shakllanishining asosiy omilidir [4].

#### 1.2. Soliq kodeksida MTB ishtirokchilariga soliq solish

O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 24-apreldagi O'RQ-197-son Qonuni bilan tasdiqlangan Soliq kodeksining "Ayrim toifadagi soliq to'lovchilarga soliq solish xususiyatlari" nomli 8-moddasida MTB bo'yicha ishlarni bajarishda qatnashayotgan investorlarga, ularning pudratchilariga va ikkilamchi pudratchilariga soliq solish "Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida nazarda tutilgan xususiyatlar inobatga olingan holda amalga oshirilishi belgilangan [12].

O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 25-dekabrda O'RQ-136-son Qonuni bilan tasdiqlangan Soliq kodeksida 46-bob ("Mahsulot taqsimotiga oid bitim doirasida amalga oshiriladigan faoliyatga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari") alohida ajratilgan. Kodeksning 256-moddasiga muvofiq, chet ellik investor MTBning amal qilish muddati mobaynida foyda solig'i, yer solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar, yagona ijtimoiy to'lov hamda aksiz solig'ini to'laydi [13].

Chet ellik investorga soliq solish quyidagi xususiyatlar inobatga olingan holda amalga oshiriladi:

1. foyda solig'i mahsulot taqsimotiga oid bitim bo'yicha ishlarni bajarish chog'ida olingan daromadlar bo'yicha hamda boshqa faoliyat turlaridan olingan daromadlar bo'yicha alohida-alohida to'lanadi. Mahsulot taqsimotiga oid bitim bo'yicha ishlarni bajarish chog'ida olingan daromadlar yuzasidan foyda solig'i solish obyektini bitim shartlariga binoan chet ellik investorga tegishli bo'lgan, chegirmalar qilinmagan holda foydaga qolgan mahsulotning qiymatidir;

2. chet ellik investor yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun quyidagi soliqlar va maxsus to'lovlarni to'laydi:

— mahsulot taqsimotiga oid bitim tuzilganda va (yoki) muayyan natijaga erishilganda bitim shartlariga muvofiq belgilangan bonuslar;

— mineral xom ashyoni kavlab olish hajmiga yoki ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatiga nisbatan foizli nisbatda belgilanadigan yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;

3. atrof-muhitni ifloslantirganlik uchun kompensatsiya to'lovlari qonun hujjatlariga muvofiq to'lanadi;

4. investorlarga va (yoki) operatorlarga yetkazib beriladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i nol darajali stavka bo'yicha qo'llaniladi;

5. mahsulot taqsimotiga oid bitim bo'yicha ishlarni bajarishga mo'ljallangan va loyiha hujjatlariga muvofiq olib kiriladigan tovarlar uchun alohida tartiblar amal qiladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrda O'RQ-599-son Qonuni bilan tasdiqlangan Soliq kodeksida ham MTB ishtirokchilari uchun alohida soliq tartiblari belgilangan [14].

Xususan, Qonunning 6-moddasida Soliq kodeksining 69-bobi qoidalarini 2020-yil 1-yanvardan keyin tuziladigan mahsulot taqsimotiga oid bitimlarga nisbatan qo'llanilishi belgilangan.

Shuningdek, Soliq kodeksining 18-moddasida "mahsulot taqsimotiga oid bitimlar ishtirokchilariga soliq solishning alohida tartibi" maxsus soliq rejimlari qatorida belgilangan [15].

Shuningdek, 264-moddaga muvofiq, MTB doirasida tovarlarni (xizmatlarni) sotib olayotgan soliq to'lovchilarga nol darajali QQS stavkasi qo'llaniladi. 274-moddaga ko'ra, MTB ishtirokchilari soliqni tezlishtirilgan tartibda qoplash imkoniyatiga ega.

350-moddada esa MTB ishtirokchilari yagona soliq to'lovi to'lovchilari sifatida tasniflanmasligi qayd etilgan. 64-1-bobning 454-1-moddasida MTB doirasida faoliyat yurituvchi yuridik shaxslar renta solig'i to'lovchilari hisoblanmasligi alohida ta'kidlangan.

Bundan tashqari, Soliq kodeksining 69-bobi mahsulot taqsimotiga oid bitim doirasida amalga oshiriladigan faoliyatga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan bo'lib, 475-moddada MTB shartnoma sifatida ta'riflanadi hamda unda hisob yuritish, soliq solish va boshqa to'lovlar shartlari, shuningdek chet ellik investor ulushini olib chiqish tartibi nazarda tutilishi belgilangan.



Soliq kodeksining 476-moddasiga muvofiq, chet ellik investor, mahsulot taqsimotiga oid bitimlar to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno, MTBning amal qilish muddati mobaynida ushbu Kodeksning 17-moddasida nazarda tutilgan soliqlarni to'lashi lozim.

#### 1-jadval. Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar (MTB) doirasida hisobot turlari va topshirish mexanizmlari

| Hisobot turi  | Davriylik                                       | Topshirish muddati                              | Qayerga topshiriladi   |
|---|---|---|--|
| Soliq hisobotlari   | Amaldagi soliq qonunchilikka asosan             | Amaldagi soliq qonunchilikka asosan             | Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo soliq inspeksiyasiga                                 |
| Moliyaviy hisobotlar  | Amaldagi qonunchilik va MTB shartlariga muvofiq | Amaldagi qonunchilik va MTB shartlariga muvofiq | Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo soliq inspeksiyasi, Vakolatli organ va Investorlarga |
| Boshqaruv hisobi va hisoboti  | Har chorak                                      | MTB shartlariga muvofiq                         | Vakolatli organ va Investorlarga   |
| Neft-gaz operatsiyalari to'g'risidagi daromad va xarajatlari aks etgan hisobotlar | Har chorak                                      | MTB shartlariga muvofiq                         | Vakolatli organ, Investorlarga, Vakolatli organ orqali Soliq qo'mitasiga                           |

MTB tizimining xususiyatlari:

- individuallashtirilgan – har bir MTB loyihasi uchun alohida shartlar;
- mahsulot hajmiga qarab – soliqlar pulda hamda mahsulotda hisoblanishi mumkin;
- vakolatli organga, investorlarga va tegishli davlat tashkilotlariga topshiriladi;
- qo'shimcha ravishda vakolatli organ tomonidan tashkillashtiriladigan inspektorlik tekshirishlarda maxsus ishchi guruhlar tomonidan tekshiriladi.

#### 2-jadval. MTB va umumiy tizim farqlari

| Ko'rsatkich             | Umumiy tizim korxonalarini                   | MTB loyihalari   |
|-------------------------|--|--|
| Hisobot shakllari       | Davlat standarti (barcha uchun bir xil)      | MTB shartlariga muvofiq alohida shakllar   |
| Soliq solish obyekti    | Foyda, aylanma, mol-mulk                     | Mahsulot (neft, gaz), foyda ulushi   |
| Soliq bazasini aniqlash | Buxgalteriya hisobi asosida                  | Maxsus formulalar asosida (yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq (royalti), kompensatsiya, foyda ulushi) |
| Soliq to'lov shakli     | Pul mablag'larida                            | Pul va/yoki mahsulot (natural) shaklda   |
| Soliq hisobotlari       | Soliq inspeksiyasi                           | Soliq inspeksiyasi + Vakolatli organ, Investorlarga  |
| Nazorat shakli          | Kameral va sayyor tekshiruvlar, soliq auditi | Qayd etilganlarga qo'shimcha ravishda Vakolatli organ tomonidan inspektorlik tekshiruvlar                  |

MTB uchun alohida soliq hisobotlari joriy etilishining asosiy sabablari

1. Qonuniy asos – Qonunning 3-moddasi ushbu tartibni bevosita tartibga soladi.
2. Soliq mexanizmining farqi – MTBda soliqlar mahsulot ulushlari asosida hisoblanadi (yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq (royalti), kompensatsiya, foyda ulushi). Ushbu mexanizmlarni umumiy soliq hisoboti shakllari orqali aks ettirish murakkab jarayon hisoblanadi.
3. Ikki tomonlama manfaat – Hisobot ham davlat, ham investor uchun zarur ma'lumotlarni taqdim etishi lozim. Investor o'z xarajatlarining qoplanishini va foyda ulushini ko'rish kerak; davlat esa yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq (royalti) va foyda solig'ining, davlatga tegishli ulushning to'liq hisoblanganligi hamda to'langanligini, investor xarajatlarining asosililigini va o'z ulushining to'g'ri hisoblanganini tekshirishi zarur.
4. Yirik va murakkab loyihalar – MTB loyihalari yirik investitsiyalarni (milliardlab dollar), uzoq muddatni (20–30 yil), yuqori xavfni va strategik ahamiyatni o'z ichiga oladi. Ular umumiy soliq nazorati doirasida qolib ketsa, davlat manfaatlariga zarar yetishi mumkin.
5. Investor talablari – Xalqaro investorlar (Petronas, LUKOYL, SOCAR, BP va boshqalar) uchun xalqaro standartlar (IFRS/MSFO) asosida hisobot yuritish, konfidensiallikni saqlash va shaffoflikni ta'minlash muhim ahamiyatga ega.
6. Individual shartlar – Har bir MTB loyihasi turli geologik sharoitlarda, turli hajmdagi zaxiralar bilan, turli infratuzilma sharoitida va turli risklar asosida amalga oshiriladi. Shu sababli yer qa'ridan foydalanganlik uchun

soliq (royalti) stavkalari, kompensatsiya mahsuloti chegarasi hamda foyda taqsimoti progressiyasi har bir loyiha uchun individual belgilanadi.

MTB loyihalarida foyda solig'ini hisoblashning amaliy mexanizmi

O'zbekiston amaliyotida MTB doirasida foyda solig'ini hisoblash uchun maxsus hisobot shakllari joriy etilgan. Qandim kon guruhi, Xauzak va Shodi hamda Qo'ng'iro't uchastkalarining MTB doirasida foyda solig'i hisob-kitobida soliq bazasi quyidagicha aniqlanadi [20]:

### 3-jadval. Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar (MTB) doirasida foyda solig'ini hisoblash algoritmi

| Satr kodi | Ko'rsatkichlar   | Izoh   |
|-----------|--|--|
| 010       | Jami tushum  | Hisob-kitobning 1-ilovasi 8-ustuni 040-satr                      |
| 020       | Realizatsiya bo'yicha jami xarajatlar                        | 1-ilova 8-ustun 070-satr   |
| 030       | Jami yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq (royalti)       | 1-ilova 8-ustun 100-satr   |
| 040       | Kompensatsiya mahsulotlari                                   | MTB shartlaridan kelib chiqib, 1-ilova 8-ustun 150-satr          |
| 050       | Davlatning kompensatsiya qilinadigan ulushi                  | 1-ilova 8-ustun 130-satr   |
| 060       | Davlatning choraklik ulushi                                  | 1-ilova 8-ustun 180-satr   |
| 070       | Soliq bazasi   | $(010-020-030-040-050) \times X\%$ - 060, biroq "0" dan kam emas |
| 080       | Foyda solig'ining belgilangan stavkasi, foizda               | MTB shartlari asosida aniqlanadi                                 |
| 090       | Foyda solig'ining byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan summasi | 070-satr x 080-satr  |

Ushbu hisob-kitobdan ko'rinib turibdiki, MTB doirasida foyda solig'ini hisoblash:

- umumiy tizimdagi foyda solig'i hisobidan farqlanadi;
- kompensatsiya mahsulotlari va davlat ulushi kabi MTBga xos elementlarni o'z ichiga oladi;
- soliq bazasi maxsus formula orqali aniqlanadi.

MTB shartlarining barqarorligi kafolatlari

"Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar to'g'risida"gi Qonunning 24-moddasi ("Bitim shartlarining barqarorligi") investorlar uchun muhim kafolatlarni nazarda tutadi [2]:

1. Bitimning shartlari u amal qiladigan butun muddat mobaynida o'z kuchini saqlab turadi.
2. Faqat taraflarning roziligi bilan bitimga o'zgartishlar kiritishga yo'l qo'yiladi.

3. Agar bitimning amal qilish muddati mobaynida qonunchilik bilan investorning bitim doirasidagi faoliyatining tijorat natijalarini yomonlashtiruvchi normalar belgilanadigan bo'lsa, bitimda qayd etilgan shartlar amal qiladi.

Ushbu norma MTBning asosiy afzalliklaridan biri — soliq va huquqiy barqarorlikni ta'minlash bo'lib, bu investorlar uchun uzoq muddatli rejalashtirish imkonini beradi. Bitim shartlarining butun amal qilish muddati davomida saqlanishi xalqaro amaliyotda "stabilik klauzasi" (stabilization clause) deb ataladi va investitsiya muhitining ishonchiligi ta'minlovchi muhim kafolat hisoblanadi.

Maqolada Qonunning hamda Soliq kodeksining amaldagi va bekor bo'lgan tartiblarini keltirishdan maqsad shundaki, O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan MTB loyihalari 2004-yil, 2007-yil, 2017-yil, 2018-yil va 2025-yillarda tasdiqlangan bo'lib, ularda o'sha davrdagi qonunchilik talablari aks ettirilgan.

QQS tartibi misolida barqarorlik kafolatlari

MTB shartlarining barqarorligi kafolatlarni alohida QQS tartibi misolida ko'radigan bo'lsak:

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining rasmiy tushuntirishlariga asosan, MTB ishtirokchilariga nisbatan QQSni qo'llash tartibi quyidagicha [21]:

Rezidentlar tomonidan MTB ishtirokchilariga tovarlar (xizmatlar) realizatsiya qilish:

- 2020-yilgacha – nol stavka bilan soliq solingan;
- 2020-yildan – MTBda nazarda tutilgan taqdirda nol stavka saqlangan.

Norezidentlar tomonidan MTB ishtirokchilariga ko'rsatiladigan xizmatlar:

— 2020-yilgacha – soliq agentligi orqali soliq solinmagan (chunki MTB ishtirokchilari QQS to'lovchilari hisoblanmagan);

— 2020-yildan 2022-yil 31-dekabrga qadar – 2020-yilgacha bo'lgan tartib saqlangan, ya'ni MTB ishtirokchisi norezidentdan xizmat sotib olganda QQS to'lamaydi.

Mazkur tartiblar MTB loyihalari uchun alohida soliq muhiti yaratilishining amaliy misolidir.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. MTB uchun alohida soliq va bojxona rejimi shakllantirilgan. O'zbekiston qonunchiligida MTB ishtirokchilari izlash-qidirish davrida to'liq soliq to'lashdan ozod qilinadi, foyda solig'i alohida tartibda (foydaga qolgan mahsulot qiymatidan) hisoblanadi, QQS nol stavka bilan soliq solinadi, bojxona to'lovlaridan ozod qilinadi.

2. MTB loyihalari maxsus soliq rejimida faoliyat yuritadi. Soliq kodeksining 18-moddasida MTB ishtirokchilari uchun "soliq solishning alohida tartibi" belgilangan bo'lib, bu ularning yagona soliq to'lovi to'lovchilari sifatida tasniflanmasligi, renta solig'i to'lamasligi hamda soliqni tezlashtirilgan tartibda qoplash imkoniyatiga ega ekanligi bilan ta'minlangan.

3. MTB uchun alohida soliq hisoboti tizimi joriy etilgan. Ushbu tizimning joriy etilishi quyidagi obyektiv sabablar bilan izohlanadi: MTB Qonunining 3-moddasi alohida tartibga qonuniy asos beradi; MTB soliq mexanizmi (yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq (royalti), kompensatsiya, foyda ulushi) umumiy tizimdan tubdan farq qiladi; hisobot ham davlat, ham investor uchun zarur ma'lumotlarni taqdim etishi lozim; MTB loyihalari yirik, murakkab va strategik ahamiyatga ega; xalqaro investorlar xalqaro standartlar, konfidensiallik va shaffoflikni talab qiladi; har bir MTB loyihasi o'ziga xos individual shartlarga ega.

4. Amaliyotdagi MTB misoli davlat va investor manfaatlari muvozanatini ta'minlashning samarali mexanizmlari mavjudligini ko'rsatadi: foyda taqsimotining teng nisbati (50/50), progressiv shkala orqali davlat ulushining 80 % gacha oshirish imkoniyati, soliq to'lovlari orqali byudjetga qo'shimcha tushumlar.

5. MTB shartlarining barqarorligi qonun bilan kafolatlangan. Qonunning 24-moddasida belgilangan stabilite klauzasi bitim shartlarining butun amal qilish muddati davomida saqlanishini kafolatlaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Johnston, D. (2010). *International Petroleum Fiscal Systems and Production Sharing Contracts*. Tulsa: PennWell Books. – 320 p.
- O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 7-dekabrda "Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar to'g'risida" O'RQ-312-II Qonuni. <https://www.lex.uz/docs/-20641?otherlang=1>
- Мансуров, О.З. (2025). Правовая природа соглашения о разделе продукции в Республике Узбекистан. Яшил иқтисодиёт ва тараққиёт журнали (ижтимоий, иқтисодий, технологик, илмий-оммабоп журнал), октябр, электрон нашр.
- Джонстон, Д. (2000). Налоговые систем и соглашения о разделе продукции. – М.: ЗАО "Олимп-Бизнес". Bindemann, K. *Production Sharing Agreements: An Economic Analysis*. Oxford Institute for Energy Studies.
- Adelman, M.A., Lynch, M.S. (1997). Fixed view of resource limits creates undue pessimism // *Oil & Gas Journal*. – Vol. 95, № 14.
- Leland, H. (1978). Optimal risk sharing and the leasing of natural resources, with application to oil and gas leasing on the OCS // *Quarterly Journal of Economics*. – № 43.
- Nellor, D. (1995). *Taxation of Mineral and Petroleum Resources*. In: *Tax Policy Handbook*. – Washington: IMF.
- Рикардо, Д. (1955). Начала политической экономии и налогообложения. – М.: Наука.
- Перчик, А.И. (1990). Словарь-справочник по экономике нефтегазодобывающей промышленности. – М.: Недра.
- Pinney, M. (2001). Western Canada Fiscal Regimes // *Oil & Gas Journal*. – Feb. 5.
- O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 24-aprelda "Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan o'zbekiston respublikasining ayrim qonunlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida" O'RQ-197-son qonuni. <https://lex.uz/uz/docs/-1420858?ONDATE=12.02.2025%2000>
- O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 20-yanvardagi Bojxona kodeksi. <https://lex.uz/docs/-2876354>
- Kun.uz (2020). Министерство прокомментировало информацию о том, что "Лукойл" получает 90 процентов газовой прибыли Узбекистана. – УРЛ: <https://kun.uz> (мурожаат санаси: 21.01.2020).
- Gazeta.uz (2021). Назван крупнейшие налогоплательщики Узбекистана. – УРЛ: <https://www.gazeta.uz/ru/2021/02/10/tax-payers/>
- Gazeta.uz (2020). Определены крупнейшие налогоплательщики Узбекистана. – УРЛ: <https://www.gazeta.uz/ru/2020/11/30/taxpayers-20/> (мурожаат санаси: 30.11.2020).
- O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2020-yil 24-fevralda 3221-son bilan ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining 2020-yil 28-yanvardagi 2020-03-son qaroriga 15-ilova (AV 2024-yil 14-oktabrdagi 3221-6-son bilan ro'yxatga olingan). – URL: <https://lex.uz>
- Бойкабилов, Б. (2021). НДС при реализации товаров участникам соглашений о разделе продукции // *Налоговые и таможенные вести*. – № 18.

# **muhandislik**

# **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 4**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)